

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023- yil yanvar-fevral oylari)

1. Sanoat mahsuloti

2023- yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalarini tomonidan **72,8** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **96,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 78,0 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 11,7 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 9,8 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi pasayishining asosiy omili qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 3,1 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 0,2 %ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 0,6 % ga pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 %), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (141,2 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatida (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 58,0 %), avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatida (78,1 %) hamda boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatida (74,6 %) ishlab chiqarish hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 98,1 %) hamda metall rudalarini qazib olish sanoatida (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %) ishlab chiqarish hajmining pasayishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sur'ati 96,2 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 26,4 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **45,2** %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **54,8** %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,3 %ni, nooziq-ovqat tovarlari esa 88,6 %ni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2023- yilning yanvar-fevral oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **101,4 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 101,8 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 101,0 % ni, xizmatlar bo'yicha 101,2 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevralida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 0,75 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 55,1 % i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 0,33 f.d. (24,3 %) va xizmatlarda 0,28 f.d. (20,6 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023- yilning yanvar-fevralida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar INI 101,9 % ni, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha 100,5 % ni, kiyim va poyabzal hamda uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 100,8 % ni, sog'liqni saqlash sohasida 101,4 % ni, transport sohasida 102,7 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 101,8 % ni, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlarida 101,2 % ni hamda maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 101,5 % ni tashkil etdi.

Bo'limlarning aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, 2023- yil yanvar-fevralidagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishlarining ta'siri 0,75 f.d. ni, transport sohasida 0,23 f.d. ni, kiyimlar va poyabzallar hamda sog'liqni saqlash sohasida 0,09 f.d. ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar sohasida 0,06 f.d. tashkil etdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri juda past darajada kuzatildi.

3. Qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-fevral oyida 12948,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,8 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 1638,5 mlrd. so'mi yoki 12,6 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 8969,7 mlrd. so'm yoki 69,3 %, norasmiy sektor subyektlari tomonidan 2339,8 mlrd. so'm yoki 18,1 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **36 567,4** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 20,5 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 18,1 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 3,7 % ga kamaygan. Respublika

miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,9 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,2 % ulush bilan 3 739,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **8 947,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **176,4** mln. AQSh dollariga yoki **2,0** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **3 164,6** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,7** % ga kamaydi (Nomonetar oltin hisobiga kamaydi va uning hajmi 1 187 mln. AQSh doll., o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 50,0%). Import **5 783,3** mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,1** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 2,4 m. (9,7 mln. AQSh doll.)ga, kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar 40,2 % (44,6 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 33,3 % (47,8 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 19,4 % (36,1 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalari – 50,8 % (804,6 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 6,5 % (20,4 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 28,7 % (177,9 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2023- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **61,8** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **10,0** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 20,6 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,6 punkt), transport xizmatlari 12,5 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,7 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 20,0 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,3 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 15,3 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining past o'sishi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmining 6,6 % ga kamayishi bilan bog'liq (ularning salbiy ta'siri 0,1 punktni tashkil etdi).

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (14,9 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 120,6 %), transport xizmatlari (14,9 trln.so'm, 112,5 %) va savdo xizmatlari (14,6 trln.so'm, 100,7 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1- mart holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **495,7** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 429,0 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (94 332 ta), Samarqand (45 289 ta), Toshkent (44 325 ta), Farg'ona (41 482 ta), Qashqadaryo (37 915 ta), Andijon (36 456 ta) va Buxoro (31 660 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 156 016 ta, sanoat sohasida – 77 954 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 41 790 ta, qurilish sohasida – 37 267 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 29 200 tani tashkil etadi.

2023- yil yanvar-fevral oyida respublikada 14,7 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 14,3 mingtani tashkil etdi.

2023- yil 1- mart holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 13 161 tani tashkil etdi. Ulardan 5 247 tasi qo'shma korxonalarni va 7 914 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.